

# 2018 yil yanvar-aprel oylarida Surxondaryo viloyatida sanoat ishlab chiqarishning rivojlanishi

2018


## RAQAMLAR

- Sanoat ishlab chiqarish hajmi **41,5 foizga** ko'paydi.
- Iste'mol tovarlari ishlab chiqarishning o'sish sur'ati - **103,0 foiz**.
- Iste'mol tovarlarning jami sanoat ishlab chiqarish hajmidagi ulushi - **31,4 foiz**.

Dastlabki ma'lumotlarga ko'ra 2018 yilning yanvar-aprel oylarida viloyat korxonalarini tomonidan 867,1 mlrd. so'mlik sanoat mahsulotlari ishlab chiqarilgan bo'lib, o'tgan yilning shu davriga nisbatan o'sish sur'ati 141,5 foizni tashkil qildi.

Jami sanoat ishlab chiqarish hajmi o'sishining asosiy omili bo'lib, ishlab chiqaradigan (qayta ishlaydigan) sanoatda - 147,6 foizga (jami sanoat ishlab chiqarish hajmi o'sishiga qo'shgan hissasi 82,2 punkt), tog'-kon sanoati va ochiq konlarni ishlashning - 110,4 foizga (o'sishiga qo'shgan hissasi 9,9 punkt), suv bilan ta'minlash, kanalizatsiya, chiqindilarni yig'ish va qayta foydalanish bo'yicha xizmatning - 153,3 foizga (o'sishiga qo'shgan hissasi 1,7 punkt), elektr, gaz, bug' bilan ta'minlash va havoni konditsiyalash - 126,4 foizga (o'sishiga qo'shgan hissasi 6,2 punkt) o'sishi kuzatildi.

## 2018 yil yanvar-aprel oylarida asosiy iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha sanoat ishlab chiqarish tarkibi



### Tog'-kon sanoati va ochiq konlarni izlash.

Tog'-kon sanoati va ochiq konlarni izlash korxonalarini tomonidan ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmi 85,6 mlrd. so'mni yoki o'tgan yilning shu davriga nisbatan 110,4 foizni tashkil etdi.

Tog'-kon sanoatida ishlab chiqarilgan mahsulotlar turi bo'yicha toshko'mir va qo'ng'ir ko'mir (lignit) qazib olish hajmi o'tgan yilning tegishli davriga nisbatan 49,2 foizga, *tog'-kon sanoati va ochiq konlarni izlash* sanoatining boshqa tarmoqlari 10,4 foizga oshganligini, xom neft va tabiiy gaz qazib olish 0,4 foizga kamayganligini kuzatish mumkin.

### ***Ishlab chiqaradigan sanoat (qayta ishlash sanoati).***

2018 yilning yanvar-aprel oylarida ishlab chiqaradigan sanoat korxonalarini tomonidan ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmi 712,8 mlrd. so'mni yoki o'tgan yilning shu davriga nisbatan 147,6 foizni tashkil etdi.

O'z navbatida, sanoatning mazkur tarmog'ida oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarish hajmi o'tgan yilning mos davriga nisbatan 5,8 foizga, tekstil mahsulotlari chiqarish hajmi 4,1 martaga oshganligini va kiyim-kechak, yaxna ichimliklar ishlab chiqarish hajmi o'tgan yilning mos davriga nisbatan pasayganligini kuzatish mumkin.

### ***Elektr, gaz, bug' bilan ta'minlash va havoni kondititsiyalash***

Elektr, gaz, bug' bilan ta'minlash va havoni kondititsiyalash korxonalarini tomonidan ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmi 53,8 mlrd. so'mni tashkil qilib, o'sish sur'ati o'tgan yilning mos davriga nisbatan (126,4 foiz) ko'ayganligi kuzatildi.

### ***Suv bilan ta'minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni utilizatsiya qilish***


Suv bilan ta'minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni utilizatsiya qilish korxonalarini tomonidan ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmi qariyb 14,7 mlrd. so'mni yoki o'tgan yilning shu davriga nisbatan 153,3 foizni tashkil etdi.

O'tgan yilning mos davriga nisbatan chiqindilarni yig'ish, ishlov berish, yo'qotish, utilizatsiya qilish bajarilganligi 77,6 foizga, suvni yig'ish, qayta ishlash va taqsimlash – 32,7 foizga, ko'payganligi kuzatildi.

### ***Iste'mol tovarlari ishlab chiqarish***

Tayyor mahsulotlar turlarini kengaytirish va ishlab chiqarilishini qo'llab-quvvatlash bo'yicha amalga oshirib kelinayotgan chora-tadbirlar natijasida iste'mol tovarlar ishlab chiqarish hajmi 272,2 mlrd. so'mni tashkil etdi va 2017 yilning yanvar-aprel oylariga nisbatan 3,0 foizga o'sishi ta'minladi, jami sanoatdagi ulushi esa 31,4 foizni tashkil etdi.

### **2018 yilning yanvar-aprel oylarida iste'mol tovarlari ishlab chiqarish o'sish sur'atlari**




# 2018 yil yanvar-aprel oylarida Surxondaryo viloyatida sanoat ishlab chiqarishning rivojlanishi

2018

2017 yilning yanvar-aprel oylariga nisbatan iste'mol tovarlari tarkibida nooziq-ovqat tovarlari ishlab chiqarish ulushining 25,3 %dan 2018 yilning yanvar-aprel oylarida 27,3 %ga oshishi kuzatildi. Nooziq-ovqat tovarlari ishlab chiqarish ulushi esa 70,2 %dan 69,0 %ga pasaydi.


## Yanvar-aprel oylarida iste'mol tovarlari ishlab chiqarish hajmining tarkibi, % da



## Hududlarning sanoat ishlab chiqarishi.

Viloyat sanoat ishlab chiqarish hajmi tarkibida eng ko'p Jarqo'rg'on tumani (viloyat sanoat ishlab chiqarish hajmning 20,6 % ulushini), Denov (15,1 %), Sho'rchi (12,9 %) tumanlari va Termiz shahri (14,0 %) hissasiga to'g'ri kelmoqda.

## 2018 yilning yanvar-aprel oylarida hududlarning jami sanoat ishlab chiqarish hajmidagi ulushi, % da



# 2018 yil yanvar-aprel oylarida Surxondaryo viloyatida sanoat ishlab chiqarishning rivojlanishi

2018


## Sanoat ishlab chiqarishda kichik biznesning hissasi

Kichik tadbirkorlik sub'ektlari sanoat ishlab chiqarishda keskin faollashgani natijasida ular tomonidan sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish hajmini o'tgan yilning mos davriga nisbatan 100,5 foizga bajarildi. O'z navbatida, kichik biznesning jami sanoat ishlab chiqarishdagi ulushi esa 33,9 foizni tashkil etmoqda.

## Faoliyat yuritayotgan va yangi tashkil etilgan sanoat korxonalari.

Bugungi kunda viloyatda 1789 ta sanoat korxonalari faoliyat ko'rsatayotgan bo'lib, ulardan 365 tasi Termiz shahrida, 206 tasi Denov, 138 tasi Termiz, 137 tasi Jarqo'rg'on, 126 tasi Sariosiyo, 124 tasi Uzun, 121 tasi Boysun, 119 tasi Qumqo'rg'on, 104 tasi Sho'rchi, 99 tasi Sherobod, 69 tasi Angor, 65 tasi Muzrabot, 59 tasi Qiziriq va 57 tasi Oltinsoy tumanarida joylashgan.

### 2018 yil 1 mart holatiga ro'yxatga olingan va faoliyat yuritayotgan sanoat korxonalari soni, birlik



Joriy yilning yanvar-aprel oylari davomida viloyatda 190 ta yangi sanoat korxonalari tashkil etilgan bo'lib, ulardan 17,4 % Termiz shahri, 13,2 % Denov, 9,5 % Sho'rchi, 8,9 % Sariosiyo, 7,4 % Qiziriq tumanlariga to'g'ri keladi.

**Surxondaryo viloyati  
statistika boshqarmasining  
Sanoat statistikasi bo'limi**

Nashr uchun mas'ul: Z.Turanazarov

Aloqa telefoni: (0376) 223-07-24